

ILMIY TADQIQOTLAR
SAMMITI
2022



ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI

Respublika ko'p tarmoqli ilmiy
sammit materiallari
TO'PLAMI

II

22.02.2022
TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI

**Respublika ko'p tarmoqli ilmiy sammit
materiallari to'plami II – jildi.
(22-fevral, 2022-yil)**



TOШКЕНТ – 2022

42.	<i>Bektoshev O.Q., Xasanov D.R.</i> Elektrlashgan temir yo'llarda elektr quvvati sarflanishi tahlili	161
43.	<i>Berdibayev A.</i> Informatsiyaliq jamiyette shaxs ruwxliyigini transformatsiyalarni sociomadeniy aspektler	164
44.	<i>Bexudova M.O.</i> Kanalli sistemada tarqaluvchi nurlar xossalarni o'rganish	167
45.	<i>Bekchanova F.M.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta'lim shakllanishining xususiyatlari va shakllari	172
46.	<i>Boboxo'jayeva L. A.</i> Usmon Azim she'riyatida muhabbat mavzusining badiiy talqinida tadrijiylik	177
47.	<i>Bobojonov B.R.</i> Bino va inshootlarni qurishda innovatsion qurilish materiallaridan foydalanish	180
48.	<i>Bobomurodova D.</i> O'quvchilarning ravon o'qishiga erishish usullaridan namuna	185
49.	<i>Boboxolova Sh.A., Qo'chqorova D.Sh.</i> Shaxsda mavjud bo'lgan vahima va qo'rqulardan xalos bo'lish usul va ushblari	188
50.	<i>Buranova S. B.</i> Pandemiyalarni o'rganishning geografik jihatlari	192
51.	<i>Buronova R.T., Toshemirova Z.N.</i> Use of new technologies in language learning	198
52.	<i>Bo'riev B.O., Muxiddinova F.A.</i> O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining psixologik va jismoniy tayyorgarligini sport yakka o'yinlari orqali shakllantirish	202
53.	<i>Dadaboyeva F.X.</i> Planning effective writing and speaking classes for esl learners	205
54.	<i>Davlatova D.Q.</i> Maksimal pro-nilpotent idealga ega bo'lgan ba'zi pro- yechiluvchan li algebralari	209
55.	<i>Dauletbaeva Z.K.</i> Qaraqalpaq xalq awizeki do'retpe si arqali oquvshu-jaslarda ta'rbiyalawdn' a'hmiyeti	216
56.	<i>Djurayeva N.S.</i> Exokardiografik ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda CNN va RNN algoritmlari	219
57.	<i>Doliyeva D.A.</i> Vatan taraqqiyotiga mening hissam	221
58.	<i>Dosmaganbetov S., Yusupov O.</i> The Karakalpak of the aral delta of amudarya	225
59.	<i>Elmurodov U.Y.</i> Boshqaruv tizimida liderlik qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammolari	230
60.	<i>Elov Z.S., Axmedova A.M.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri	234
61.	<i>Ergasheva D.S.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini yuksaltiruvchi omillar	238
62.	<i>Ergasheva G.O.</i> Ways to increase cognitive activity of youth	241

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ BUZILISHLARI VA ULARNI YUZAGA KELITIRUVCHI SABABLARNING BOLA RUHIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Elov Z.S.

Buxoro Davlat universiteti o'qituvchisi, (PhD).

Axmedova A.M.

Buxoro shaxridagi 34-MTM logopedi.

Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlari tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Homiladorlikning dastlabki uch oyligida onaning virusli kasalliklar bilan qattiq shamollashi, ularni davolamasdan oyoqda o'tkazishi, o'zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni qabul qilishi, ota yoki onaning giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishi, radiastiya, tos suyagining torligi natijasida tug'uruqda bola miyasining lat eyishi, kindigiga o'ralishi, bo'g'ilib qolishi, yo'ldosh ko'chib qolishi natijasida bolaga kislorod etib bormaslik holatlari uchraganda bolada nutqiy nuqsonlar kelib chiqishi mumkin.

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida, tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi. Zamonaviy psixologiyada boladagi nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir.

Bolaning tevarak-atrofidagi sharoitni alohida o'rganish talab qilinadi. Psixik (shu bilan birga nutqiy) jarayonlarning shakllanishida biologik va ijtimoiy jarayonlarning birligi prinsipi nutqiy jarayonning rivojlanishiga nutqiy muhit, muomala, emostional aloqa va boshqa faktorlarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, bola tug'ilgandan to uch yoshga to'lgunga qadar og'ir infeksiyon kasalliklarga chalinishi, turli miya jarohatlarini olishi, bolaning ilk rivojlanish paytidan unga gapirmaslik, so'zlarni to'liq va o'z nomi bilan aytmaslik, tilga kira boshlaganda savollariga javob bermaslik, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilmaslik ham nutqdagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Eshitishi normal bo'lgan bolaning kar-soqov ota-ona qo'lida tarbiyalanuvchi, surunkali kasal bo'lib tez-tez kasalxonalarda davolanuvchi bolalarda nutqning rivojlanmay qolishi, oilada uzoq vaqt davom etuvchi ruhiy shikastlanish va ikki tillik bolada duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi nutqiy muhitning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga misol bo'ladi.

Bugun tibbiyot psixologiyasida bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari sifatida¹⁶:

1. "Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti". Z.S.Elov //Pedagogik mahorat (Ilmiy nazariy metodik jurnal) 5/2021. 143-144

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;
2. Homiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;
3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, enstofamit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar. Bunday hollarda nutq buzilishlari umumiy nerv sistema buzilishlarining bir qismini tashkil etib, intellektual va harakat kamchiliklari bilan birga kuzatiladi.
7. Ijtimoiy muhitning yomonligi. Bu holat ijtimoiy pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunktsiyaga, emostional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar, ayrim hollarda ularning birgalikda qo'shib kelishi nutqning turli tomonlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Hamma nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.
2. Funkstional xarakterdagi nutq buzilishlari.

Pereferik buzilishlar: artikulyastion apparatning noto'g'ri tuzilishi yoki buzilishi va pereferik nerv artikulyastion organlar inervastiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Pereferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funkstional buzilishlar: bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a'zolar tuzilishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Funkstional xarakterdagi nutq buzilishlariga - dislaliya, duduqlanish kabi nutq nuqsонlari kiradi. Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqsон bolaning maktabga kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib, o'zlashtirishga salby ta'sir ko'rsatadi. Agarda bolaning nutq nuqsони maktabgacha yoki yasli yoshida aniqlansa, tibbiy va pedagogik tuzatish maktabda to'laqonli ta'lim olish imkonini beradi. Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalarni erta aniqlash ishlari birinchi navbatda «oilaviy muhiti yaxshi bo'lmagan» oilada o'tkaziladi. Bunday oilalarga quyidagilar kiradi:

1. U yoki bu nuqsonga ega bo'lgan bola bor oila;
2. Ota-onalarning birida yoki ikkalasida fiziologik eshitishi buzilgan, aqli zaiflik, shizofreniya kasalligi bor oilalar;
3. Homiladorlik vaqtida yuqumli kasalliklar, og'ir toksikoz o'tkazgan ayol bor oilalar;
4. Embrionlik davrida gipoksiyani, tug'riq vaqtida asfeksiya, jarohat yoki neyroinfektsiyani boshidan kechirgan, hayotning birinchi oylarida bosh miya jarohatlari olgan bola bor oilalar.

Bizning jamiyatimizda ona va bola sog'lig'ini saqlash borasida uzluksiz ravishda choralar ko'rilmogda. SHularning ichida birinchy navbatda homilador ayollar dispanserizastiyasini, surunkali kasalliklar bilan og'ruvchi, manfiy rezus-faktorga ega ayollarni doimiy ravishda kasalxonalarda davolash va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarning oldini olishda tug'ilish vaqtida shikastlangan bolalarni dispanserizastiyasi muhim rol o'ynaydi.

Ota-ona, bobo-buvilar farzandi yo nevarasining har bir harakatidan suyunib, unga «bola tilida» gapirishni xush ko'radi. Nonni «nana», mushukni «miyov», kuchukni «vov-vov» deb aytganda bola ularning nomini shu holda eslab qoladi. Natijada esa bolada nutqning kechikishi kuzatiladi.

Masalan, mashinada birga ketayotgan bo'lsa, «bu mashina, u bizni manzilimizga olib boradi» deb mashina haqida kam bo'lsa ham tasavvur berish kerak. Yoki bolaga olma kesib berayotganda uning shakli, rangi, ta'mi, qaerdan olib kelingani va foydalari haqida aytib edirish lozim. Bular bolaning xotirasida o'rnatilib, leksik lug'at boyligini tobora oshiradi.

Bir yarim - ikki yoshda bola sodda gaplarni tuza oladi. Sababi bu davrda uning nutqida fe'llar paydo bo'la boshlaydi. Ikki yoshgacha bola ishlata oladigan so'zlar miqdori 60-80 taga etishi kerak. Ana shundan keyin u x, y tovushlarini ayta boshlaydi. Bu paytda u hali r, sh, j, l, ch kabi ayrim tovushlarni aytmaligi mumkin va bu me'yor sanaladi.

Umuman olganda, ikki yoshligida bolaning nutqida tovush talaffuzidan ham oldin gapirish muhim o'rinda turadi. YA'ni tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lishi mumkin, ammo bo'g'inlar, so'zlar, sodda gaplarni gapira olishi kerak.

Ikki yoshga to'lganda ham gapirmaligi tashvishlantiradigan holat. Bunga yuqorida sanab o'tgan omillardan tashqari, nevrologik, eshitish organlaridagi kasalliklar ham sabab bo'lishi mumkin. SHunda bolani logopedga olib borish zarur. U esa qaerida muammo borligini tekshirib, audiolog, nevroptolog, psixonevrolog, lor kabi mutaxassislariga yo'naltiradi.

Bola uch yoshdan to'rt yoshgacha — 1000 ta, to'rt yoshdan besh yoshgacha — 2000 ta, besh yoshdan oshganda esa 3000 ga yaqin so'zni bilsa va qo'llay olsa, uning nutqiy rivojlanishi me'yor darajasida bo'ladi. Besh yoshli bolada barcha tovushlar talaffuzi shakllangan bo'lib, u rasm asosida biror hikoyani qayta gapirib bera oladi.

Nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish bolalik davrida nisbatan osonroq kechadi. SHuning uchun nutqida ma'lum nuqsoni bor bola bilan bog'cha va maktablardagi psixolog va logopedlar mashg'ulotlar olib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Logopediya”. Bekker K.P. Sovak M. Moskva 1981 g.
2. “Tibbiyot psixologiyasi” Z.Ibodullaev. Toshkent 2006 y.
3. “Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti”. Z.S.Elov //Pedagogik mahorat (Ilmiy nazariy metodik jurnal) 5/2021. 143-144

4. "Nutqdagi ayrim nuqsonlarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri"
Z.S.Elov. // Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: Muammolar va yechimlar
(Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi) 2021 yil oktabr 3(03).
5. "Zaikanie" Tyapugin N.P. Moskva 1994 g